

IJODKORNING RAMZ QO'LLASH MAHORATI

Sadoqat Ergashova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17526083>

Annotatsiya. Mazkur maqolada iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan ramzlar badiiyati hamda ijodkorning ramz qo'llash mahorati haqida so'z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ramz, ijodkor mahorati, ko'chma ma'nodagi so'zlar, obraz, ramziylik.

THE ARTIST'S SKILL IN USING SYMBOLS

Abstract. This article discusses the art of symbols used in the work of the talented poet Eshqobil Shukur and the artist's skill in using symbols. The topic of the article is explained using examples based on scientific and theoretical ideas.

Keywords: symbol, artist's skill, figurative words, image, symbolism.

МАСТЕРСТВО ХУДОЖНИКА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ СИМВОЛОВ

Аннотация. В данной статье рассказывается об искусстве рифмы, используемой в творчестве талантливого поэта Эшкabila Шукура, и мастерстве художника в использовании символов. Тема статьи поясняется с помощью примеров, основанных на научных и теоретических представлениях.

Ключевые слова: символ, творческое мастерство, образные слова, образ, символика.

Haqiqiy she'rni ramzlarsiz tasavvur etish qiyin. Ijodkor ifoda etmoqchi bo'lgan fikrni ramzlar asosida ko'chma ma'nodagi so'zlar yordamida ochib beradi. O'z o'rnida topib qo'llangan ramzlar asarning faqat bezagi hisoblanmaydi. Ular orqali so'zlarning ortiqcha "isrof" idan saqlanadi, "ramz obrazning mohiyatini oydinlashtiradi, shaklan yorqinlashtiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, hissiy ta'sirchanligini kuchaytiradi"¹.

Ramziylikda so'zni anglash va his qilish bilan bir qatorda ko'zda tutilgan ishorani anglash ham muhimdir. Avvalo, ramz o'zi nima? Uning she'r tarkibidagi vazifasi nimalardan iborat?

Adabiyotshunos To'ra Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida ramzga quyidagicha ta'rif beradi: "**Ramz** (arab. رمز — imo-ishorat) — tasvir ob'ekting mohiyatini ma'lum bir nuqtayi nazardan shartli ifodalovchi so'z yoxud predmet. Ramzlar xalqaro atamashunoslikda simvol (yunon. symbolon — shartli belgi) deb yuritiladi"².

"Bunda so'z o'z ma'nosidan ko'chadi va muayyan narsa yoki hodisaning majoziy, ramziy yoxud istoraviy timsoliga aylanadi. Ulkan shoir A. Oripovning "To'ti" she'ridagi bulbul va to'ti obrazlari fikrimizning tasdig'idir. She'rdagi bulbul - ona tilining ramziy ifodasi".³

Demak, ramzlar ma'lum bir matnda ijodkorning ko'zlagan maqsadini to'liq ochib berish uchun xizmat qiladigan, o'z va ko'chma ma'noga ega bo'lgan badiiy tafakkur mevasidir.

Ta'kidlash joizki, ko'chimning **allegoriya** deb ataluvchi turi ham mavjud. Ba'zi manbalarda majoz deb ham yuritiladi. "Badiiy adabiyotda so'z-allegoriyalar ko'proq an'anaviy

¹ Жуматова Н. Хозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар: Филол. фан. ном.... дисс. — Тошкент, 2000. — Б. 10

² Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий ўқув юртарининг филология факультетлари талабалари (бакалавр босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир С.Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. — Т.: "Ўзбекистон", 2001. — Б. 337. (www.ziyouz.com kutubxonasi).

³ Б.Саримсоқов. Бадийлик асослари ва мезонлари. — Тошкент: "Bookmany print", 2022. 37 б.

tarzda qo‘llanadi”⁴. Demak, uni an‘naviy ramz turidan farqlashimiz kerak, ular o‘rtasida aniq chegara qo‘yilmas ekan turli bahslar kelib chiqishi tabiiy. Masalan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinflari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligida⁵ va adabiyotshunos T. Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” darsligida⁶ simvol ya‘ni ramzning bir ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Biz bu fikrlarga qo‘shilmagan holda aytishimiz mumkinki, ramzni hosil qilgan so‘zlar o‘z va ko‘chma ma‘nosini saqlagan bo‘ladi. Ularni faqat kontekstda boshqa so‘zlar bilan yondosh holda ko‘chma ma‘noda uchratishimiz mumkin. Badiiy nutqdan tashqarida o‘z ma‘nosini ifodalashga xizmat qiladi.

“Adabiyotshunoslik lug‘ati” da ramz “ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma‘no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi deb ta‘riflanadi”⁷. Haqiqatdan ham ramz majoz (allegoriya)ga yaqin hodisa hisoblanib, ba‘zida har ikkisi bir xil degan qarashlar mavjud. Lekin ta‘kidlab o‘tganimizdek, ramz matnda ham o‘z ma‘noda ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanilishi mumkin. Allegoriyada esa turg‘unlik ustuvor. Masalan, “bo‘ri” – vahshiylik, “eshak” – farosatsizlik, “bedana” – qo‘nimsizlik, “buqalamun” – beqarorlik, “musicha” – ojizlik, “chayon” – zararkunandalik tarzida...⁸.

Adabiyot tarixidan to hozirgacha yaratilayotgan asarlar tadqiqi jarayonida ko‘rishimiz mumkinki, ba‘zi ramzlar asarlararo “ko‘chib yuradi”. Bu hodisani turg‘unlik bilan adashtirmaslik joiz.

Masalan, gul obrazi. Mumtoz adabiyotdan tortib bugungi kundagi modern she‘riyatda ham ramz sifatida uchratamiz. Ammo ayni bir ma‘noga ixtisoslashmagani uchun allegoriya bo‘la olmaydi. Ta‘kidlaganimizdek, allegoriyalarda ma‘naviy turg‘unlik mavjud. Ramzdan asosiy farqi ham shunda.

Masalan:

*Kechalar ul **gul** chekar ermish qadah, ey tong yeli,
Voqif o‘l, holimni aytur chog‘da maxmur o‘lmasun.*⁹

Navoiyning “O‘lmasun” radifli g‘azalidan olingan ushbu baytda an‘naviy gul ramzini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda *gul* yor mashuqa ramziy ma‘nosini ifodalamoqda.

Eshqobil Shukur ijodida qo‘llangan ramzlarni shartli ravishda ikkiga tasnif qilish mumkin:

1. *An‘naviy ramzlar*
2. *Individual ramzlar*

Individual ramzlar deyilganda oldin adabiyotda mavjud bo‘lmagan, va eng asosiysi ijodkor mahorati, o‘ziga xos badiiy tafakkurini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiluvchi, ma‘lum ijodkor tomonidan “kashf etilgan” ramz tushuniladi.

Dastlab, shoirning 4 banddan iborat, to‘rtlik shaklda yozilgan “Ko‘nglimni..” she‘ri tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Birinchi band:

Ko‘nglimni toshga yordim,

⁴ Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari / D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 287 b

⁵ Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri – T.: “Sharq”, 2017. – B. 309.

⁶ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий ўқув юр்தларининг филология факультетлари талабалари (бакалавр босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир С.Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 339. (www.ziyouz.com kutubxonasi).

⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 244.

⁸ Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari / D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 287 b

⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-olmasun-alisher-navoiy-gazallariga-sharhlar.html>

Toshlar sindi-ya chil-chil.

Suv ichgali ko'zimga

Qushlar qo'ndiya bir-bir.¹⁰

To'rtlikdagi ko'ngil-shoir iztirob-u dardlari, tosh-bu yerda og'irlik ma'nosiga ishora bor, ya'ni og'ir tabiatli inson ramzi. Ko'rinadiki har ikkisi ham an'anaviy ramz. Lekin oxirgi misrada lirik qahramonning "ko'zlariga suv ichgali qo'ngan" qushlar-individual ramz hisoblanib, o'zgalar holatidan qat'iy nazar o'z manfaatlarini ustun ko'ruvchi insonlar ramzidir. Ular uchun shoirning iztirobli ko'z yoshlarining ahamiyati yo'q, chanqog'ini qondirsa bo'lgani. Bu kabi go'zal ramz shoirning o'ziga xos badiiy tafakkur sohibi ekanligidan darak beradi.

Shoirning yana bir she'ri "Tinchlik xususida nutq" da tog' ramziy obrazini mahorat bilan qo'llaydi. Bilamizki, tog'-salobat, sabr-matonat, ulug'vorlik ma'nolarida azaldan mavjud. Demak, tog' ramzi pir-u ustozlar, suyanchiq insonlar, ota-ona ma'nosida qo'llanilsa, ayni muddaodir.

She'ning beshinchi bandida yuqoridagi ma'nolar ustuvorligining guvohi bo'lamiz:

Yomg'irlar shig'alab yog'ar bag'rimga,

Tog'larim yuzidan o'par samolar.

Qachonlar xomtalash bo'lgan yerimda,

Keza boshlaydilar ulug' siymolar.¹¹

Eshqobil Shukurning "Zo'raki qahqaha" she'rida ham individul ramzni ko'rishimiz mumkin:

Gullar, nega kulmaysiz,

Yozing g'amgin ko'ngilni,

Arilar topib kelar,

Qochib qolgan qotilni...¹²

Ushbu to'rtlikdagi ari ramziy obrazi –kuyunchak insonlar obrazini yaratishda mohirlik bilan qo'llanilgan. Arilar chumolilar kabi tinib-tinchimaydigan mehnatkash jonzotlardir.

Guvohi bo'lganimizdek she'rda qo'llangan ohoriy ramzlar silsilasi shoir iste'dodining darajasi va o'ziga xos individullik xususiyatini belgilab berishga xizmat qilgan. Ijodkor so'z odami. Quruvchi o'z mahoratini shakllar yordamida ko'rsatib beradi, so'z odamlari iste'dodi esa yaratgan badiiy ramzlari va she'ning boshqa unsurlari vositasida ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари талабалари (бакалавр босқичи) учун дарслик. Масъул муҳаррир С.Мамажонов. 2-нашр, қайта ишланган ва тўлдирилган. – Т.: "Ўзбекистон", 2001. – Б. 337. (www.ziyouz.com kutubxonasi).
2. Б.Саримсоқов. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: "Bookmany print", 2022. 37 б.
3. Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari / D.Quronov. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 287 b

¹⁰ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 9.

¹¹ Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 39.

¹² Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарк, 2002. –Б 49.

4. Yoʻldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri – T.: “Sharq”, 2017. – B. 309.
5. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 244.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-olmasun-alisher-navoiy-gazallariga-sharhlar.html>
7. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 9.